



DEVIANT XULQ ATVOR IJTIMOY MUAMMO SIFATIDA.

Zaretdinova Nesibeli Kurbanbaevna

(Ilmiy rahbar: QQDU "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti (Phd))

Kurbanbaeva Mehriban Jenisbay qizi

(Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti)

Sociologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17403822>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-oktabr 2025 yil

Ma'qullandi: 15-oktabr 2025 yil

Nashr qilindi: 21-oktabr 2025 yil

KEY WORDS

deviantlik, anomiya, etika, talonchilik, madaniy qadriyatlar, oila, deviant xulq-atvor, jinoyat, o'grilik, ayibdorlar, shaxs.

ABSTRACT

Bu maqola yoshlar orasidagi tarbiyaning buzilishi, ularning boshqa yo'llarga kirib ketishi haqidagi tushunchalardir. Deviant xulq-atvor degani — bu jamiyatdagi odamlarga odatda to'g'ri deb hisoblanadigan qoidalarga zid ish tutish. Masalan, qonunni buzish, maktabdan qochish, urush-janjal qilish, spirtli ichimlik yoki g'yohvand moddalar iste'mol qilish kabi xatti-harakatlar deviant hisoblanadi. Bunday xulq-atvorning sabablari ko'p bo'lishi mumkin: noto'g'ri tarbiya, oilaviy muammolar, atrofdagi salbiy ta'sir, ijtimoiy tengsizlik yoki ruhiy bosimlar. Bu muammoni kamaytirish uchun yoshlar bilan ko'proq ishlash, to'g'ri tarbiya berish va ijobiy muhit yaratish kerak. Jamiyatda tinchlik va tartib bo'lishi uchun bunday xatti-harakatlarga qarshi birgalikda kurashish muhimdir. Quyidagi turlari orqali deviant xulq-atvorning qanday ekanligi aniq tarzda ko'rsatilgan.

Rezyume. Bul maqala jaslar arasindagi tarbiyanin buziliwi olardin basqa jollarga kirip ketiwi haqqindagi tusinikler esaplanadi. Deviant minez-quliq degeni - bul jamiyettegi adamlarga adette duris dep esaplanatuyn qagiydalariga qayshi is jurgiziw. Misali, nizamdi buzıw, mektepten qashıw, urıs-qagıs, spirtli ishimlik yamasa nashebentlik zatlardı qabil etiw sıyaqlı is-hareketler deviant esaplanadı. Bunday minez-qulıqtın sebepleri kóp bolıwı múmkin: nadurıs tárbiya, shañaraqlıq mashqalalar, átiraptağı unamsız tásir, sociallıq teńsizlik yamasa ruwxıy basımlar. Bul mashqalanı azaytıw ushın jaslar menen kóbirek islesiw, durıs tárbiya beriw hám unamlı ortalıq jaratıw kerek. Jámiette tınıshlıq hám tártip bolıwı ushın bunday is-hareketlerge qarsı birgelikte gúresiw áhmietli.

Tayanish sózler: Deviantlıq, anomiya, etika, tonawshiliw, madeniyy qadiriyyatlar, shanaraq, deviant minez-qulq, jinayat, urliqshiliq, ayipkerler, shaxs.

Резюме: Эта статья посвящена пониманию ухудшения воспитания среди молодежи и их ухода на другие пути. Девиантное поведение - это поведение, противоречащее правилам, которые люди в обществе обычно считают правильными. Например, такие действия, как нарушение закона, уклонение от школы, драки, употребление алкоголя или наркотиков, считаются девиантными. Причин такого

поведения может быть много: неправильное воспитание, семейные проблемы, негативное влияние окружающих, социальное неравенство или психологическое давление. Чтобы уменьшить эту проблему, необходимо больше работать с молодежью, обеспечивать правильное воспитание и создавать позитивную среду. Для обеспечения мира и порядка в обществе важно совместно бороться с подобным поведением. Мы можем воспитывать молодое поколение через виды, причины и функции девиантного поведения. Следующие типы четко демонстрируют, что такое девиантное поведение.

Ключевые слова: девиантность, аномия, этика, грабёж, культурные ценности, семья, девиантное поведение, преступление, воровство, виновные, личность.

Resume: This article explores the disruption of upbringing among young people and their misguided approaches. Deviant behavior is when people in society act contrary to rules that are usually considered correct. For example, behavior such as breaking the law, skipping school, fighting, consuming alcohol or drugs is considered deviant. There can be many reasons for such behavior: improper upbringing, family problems, negative environmental influences, social inequality, or psychological pressures. To reduce this problem, it is necessary to work more with young people, provide proper upbringing, and create a positive environment. For peace and order to prevail in society, it is important to jointly combat such behavior. Through the types, causes, and functions of deviant behavior, we can educate the younger generation. The following types clearly show what deviant behavior is like.

Key words: deviance, anomie, ethics, robbery, cultural values, family, deviant behavior, crime, theft, perpetrators, personality.

Deviant so'zi - lotincha "deviatio" so'zidan olingan bo'lib, chekinish, buzilish degan ma'noni anglatadi. Deviant xulq-atvor - amaldagi jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisadir. Madaniy me'yorlarni buzuvchi har qanday xatti-harakat deviantlik hisoblanadi. Deviantlik odatda ikki turga bo'linadi. Birinchidan, jinoyat rasman qabul qilingan qonunlarni buzish bo'lib, u formal deviantlik deb ataladi. Bunga misol tariqasida qaroqchilik, o'g'rilik, zo'rlash, qotillik, tahdid qilish va hokazolarni keltirish mumkin. Ikkinchi turdagi deviantlik qonunlarda rasman nazarda tutilmagan norasmiy ijtimoiy me'yorlarni buzish bo'lib, u norasmiy deviantlik deb ataladi. G'arb sotsiologiyasida deviant xulq-atvorga turlicha qarashlar mavjud. Deviant xulq-atvorning eng ko'p tarqalgan va jamiyatda yaqqol namoyon bo'ladigan turi aybdorlik bo'lib, ijtimoiy normaning buzilishi sifatida bu hodisa qadimdan o'rganilgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib pozitivizm obyekt hisoblanadi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib pozitivistik maktab shakllanishi bilan, aybdorlikni ham o'rganuvchi ta'limotlar paydo bo'la boshladi. Xususan, Italiyalik psixiatr CH. Lombrozo Italiya qamoqxonalariidagi 14 ming jinoyatchi ustidan tekshiruv olib borib, "aybdorlar ziyrak bo'ladi" degan xulosaga keladi. Uning shogirdi ham, Ferri ham aybdorlik sotsiologiyasi asarida bu yo'nalishga qo'shimcha ravishda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillarni ham ko'rsatadi. Garchi keyinchalik bu ta'limotlar turli haqiqiy fikrlarga duch kelgan bo'lsa-da, hozirgi kungacha ham G'arb sotsiologiyasining ayrim turlari bu ta'limotning u yoki bu yo'nalishlarini rivojlantirmoqda. Deviant xulq-atvorga R. Merton ishlab chiqqan ta'limot zamonaviy

sotsiologiyada yetakchi o'rin tutadi. E. Dyurkgeymning anomiyasini rivojlantirib, Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi;

Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan xalqning qo'pol motivlari va amaldagi imkoniyatlarning bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir." [1.20]

Jamiyatning rasmiy tuzilmalari tomonidan maqsadga erishishning turli guruhlar uchun turlicha imkoniyatlar yaratib berishi natijasi bo'lgan funksional kamchiliklar maqsadga erishishga xizmat qiluvchi norasmiy tuzilmalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Maqsad va vositalarga turlicha munosabat quyidagi xulq-atvor turlariga olib kelishi mumkin. Deviantlik muammosiga sotsiologik jihatdan qiziqish o'zida formal deviatsiyani o'lchash, shu bilan birga, jamiyatda deviantlikning paydo bo'lishi va uning rolini tushuntirishga yo'naltirilgan turli nazariyani aks ettiradi. Strukturaviy-funksional yondashuvga muvofiq, deviant xulq-atvor bir qator sabablarga ko'ra jamiyatda muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, deviantlik esa noma'lum bo'lib keladigan fe'l-atvorni farqlashga yordam beradi. Ma'lum ma'noda deviantlik odamlar nimani qilishlari mumkin, nimani esa qilishlari mumkin emasligini bilishlari uchun talab qilinadi. Bu hodisa ma'lum ma'noda chegaralarni chizib beradi. Bu zaruriy funksiya bo'lib, u kishilar amal qiladigan madaniy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar vositachiligida namoyon bo'ladi. Jamiyat a'zolarining xulq-atvorlari shu jamiyatda qabul qilingan axloqiy va huquqiy me'yorlarga muvofiq kelishi odamlarning farovon turmushlarini tashkil etishning zarur omillaridan bo'lib xizmat qiladi. I.M. Hakimova "Deviant xulq psixologiyasi" kitobida jamiyatga xos bo'lmagan xulq-atvorlarni qayd etadi. Bu xulq-atvorlarga talonchilik, jahldorlik, shahvoniylik, jinoiy harakatlar va ularning turlari kiritiladi. Nomusga tegish deganda qonunga xilof ravishda moddiy manfaat, pul yoki mulkiy boyliklarni taqsimlashda tajovuz qiluvchi huquqbuzarlik va qilmishlarni tushunish kerak. Bu guruhga quyidagilar kiradi:

a) xo'jalikka oid jinoyatlarni sodir etishga moyilliklar, aybdorlar, ya'ni tovarlarni qalbakilashtirish, ishlab chiqarishning ekologik me'yorlariga rioya qilmaslik, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, qonunga xilof tadbirkorlik, xakerliklar kiradi.

b) mansabdor aybdorlar (savdo-sotiq qoidalarini buzish, poraxo'rlik va boshqalar).

c) o'g'rilik talonchilik (mulkni yashirin ravishda o'g'irlash, qimmatbaho hujjatlarni ruxsatsiz o'g'irlash, birovga pul jihatidan zarar yetkazadi). [2.143]

Deviant xulq-atvor - bu jamiyat tomonidan belgilangan me'yorlardan chetga chiqish, odatda salbiy baholangan xulq-atvor majmuidir. Bu xulq-atvorni o'rganish, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va oldini olish choralari jamiyat barqarorligi va yoshlarning sog'lom rivojlanishi uchun zarurdir.

Deviant xulq-atvor shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar

1. Oila va oilaga oid munosabatlar: Oila - bolalar va o'smirlarning birinchi tarbiya manbaidir. Oiladagi janjal, e'tiborsizlik, ota-onalarning salbiy qo'polligi bolalarda deviant xulq-atvorni shakllantirishi mumkin.

2. Tengdoshlar bosimi: O'smirlar orasida tengdoshlarining ta'siri katta ahamiyatga ega. Ularning salbiy xulq-atvori va tazyiqi o'smirlarni deviant xulq-atvorga undashi mumkin.

3. Ruhiy salomatlik va stress: Depressiya, xavotir, stress kabi ruhiy holatlar o'smirlarning qo'polligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, deviant xulq-atvorni keltirib chiqarishi mumkin.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: Kam ta'minlangan oilalarda yashovchi bolalar va o'smirlar ijtimoiy muammolarga duch kelib, deviant xulq-atvorni namoyon qilishlari mumkin.

5. Ta'lim muassasalaridagi muhit: Maktabda o'quvchilarga nisbatan salbiy munosabat, e'tiborsizlik va ta'lim sifatining pastligi deviant xulq-atvorni rivojlantirdi.

Deviant xulq-atvorni oldini olish choralari

1. Psixologik maslahat va aralashuv: O'smirlar bilan psixologik maslahatlar o'tkazish, ularning ichki muammolarini hal qilishda yordam beradi.

2. Oilaga oid terapiya: Oila ichidagi muammolarni hal qilish uchun oilaga oid terapiya va maslahatlar o'tkazish, oilaga oid munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi.

3. Ta'lim jarayonida faoliyat: Maktabda o'quvchilarga axloqiy tarbiya berish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va salbiy xulq-atvorni aniqlash tizimini joriy etish zarur.

4. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: Ijtimoiy xizmatlar, yoshlar markazlari va boshqa tashkilotlar orqali o'smirlarga ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatish, ularning ijtimoiy hamjihatligini yaxshilaydi.

5. Jamiyatda ijtimoiy me'yorlarni mustahkamlash: Jamiyatda ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni e'lon qilib, deviant xulq-atvorning oldini olishga yordam beradi. Deviant xulq-atvorni oldini olish va tuzatish uchun kompleks yondashuv zarur. Haqorat – o'zga shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beadab

shaklda ifodalangan harakat orqali kamsitish.

Bezorilik – fuqarolarga nisbatan zo'rlik ishlatish yoxud zo'rlik ishlatish yo'li bilan qo'rqitish, shuningdek o'zganing mulkini nobudqilish yoki shikast yetkazish tarzida jamiyatdagi yurish-turish qoidalarini qo'pol ravishda buzish.

Kaltaklash – badanning anatomik butunligini buzmaganda ko'plab zarbalar berish.

Qiyinlash –zo'rlik ishlatish yo'li bilan muttasil ravishda jismoniy yoki ruhiy azoblar berish.

Nomusga tegish - zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib, qurbonning o'jizligidan foydalanib, jinsiy aloqa qilish.

Odam o'ldirish – boshqa odamga nisbatan qasddan o'lim yetkazish.

Ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatlar deganda – jinoiy ehtiyotsizlik yoki o'ziga ishonganlik oqibatida vositalar va tizimlardan foydalanish orqasida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, maishiy, tibbiy, ekologik xavfsizlik va shu kabilarning buzilishiga olib keluvchi harakatlar tushuniladi.

Bu jarayonda oila, ta'lim muassasalari, psixologlar, pedagoglar va jamiyatning barcha a'zolari birgalikda ishlashi kerak. Fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki, yoshlarning sog'lom rivojlanishi va jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Davlatimiz birinchi rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek, "bu hayotda odam ba'zan o'zini yo'qotib qo'yadigan g'oyat murakkab muammolarga duch keladi. Keskin vaziyatdan chiqishning iloji yo'qdek tuyuladigan holatlar bor. Shunday paytda, ishda va hayotda, jamiyatda og'ir savdolarga duch kelganda kim o'zining yo'lini yo'qotmasligi mumkin? O'ylaymanki, birinchi navbatda o'z kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma'naviy olami baquvvat bo'lgan odamgina bunday vaziyatdan yorug' yuz bilan chiqa oladi..."1... "[3.93].

Inson xulq-atvori, psixologik xususiyatlari bilan bog'liq masala insoniyatni qadim zamonlardan buyon qiziqtirib kelgan. Bu sohada izlanish olib borgan ko'plab olimlar insonning tug'ilganidan boshlab shakllanishi bilan bog'liq barcha hodisalarni o'rganishni tadqiq qilish orqali, uning o'ta murakkab jihatlarini kashf etgan. Haqiqatdan ham, inson xulq-atvorining jamiyatda belgilangan hayotiy normal mezonlardan og'ishi, buzilishi bilan bog'liq muammoni psixologiya fani o'rganadi. Demak, psixologiyada deviant, ya'ni og'uvchi axloqning turli

shakllari, anomal turlari, sabab va motivlari mavjud bo'lib, bu pedagoglar, psixologlar, psixoterapevt va boshqa inson ongi va tarbiyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi soha mutaxassislari bilan birga, ichki ishlar idoralari kasbiy psixologiya sohasi xodimlarining ham tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1.Toshpolatova K.Z "Ijtimoiy pedagogikada deviant xulq-atvor muommosi"
Toshkent/Guliston davlat pedagogika institute.
- 2.I.M. Xakimova. Deviant xulq atvor psixologiyasi / /Tashkent Uzbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013
- 3.Karimov I.A, "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch,-T.,2008.

